

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktyabr holatiga 2795,6 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 42,9 ming kishiga yoki 1,5 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1805,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6 %), qishloq aholisi soni 989,7 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.


E'tibor bering: 2019 yil yanvar-sentyabr

- Aholi soni **42,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **52,8 ming nafami** tashkil etdi.
- **9,1 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **16,2 mingta nikoh** va **1,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida)




Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2019 yil 1 oktyabr holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 375,6 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4150,7 kishi), Namangan (874,1 kishi), To'raqo'rg'on (822,0 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (74,9 kishi) va Mingbuloq tumanida (168,9 kishi) to'g'ri kelmoqda.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2019 yil 1 oktyabr holatiga ming kishi)



Demografik holat

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 52,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,5 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 2,0 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 23,5 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'g'il bolalar:
28,4 ming nafar



Qiz bolalar:
24,4 ming nafar



Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentyabr, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 9,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4,3 promille bo'lgan).


Erkaklar:
4,8
ming kishi



Ayollar:
4,3
ming kishi



Tumanlar (shahar) kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentyabr, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 57,7 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,0 %i - o'simtalardan, 6,5 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,8 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,0 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 13,7 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 510 nafarni tashkil etib, ularning 39,2 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 29,2 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,0 %i - tug'ma anomaliyalardan, 3,3 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,9 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan va 4,4 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2019 yil yanvar-sentyabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




Demografik holat

Nikoh. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 16,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on tumani (13,8 %) Mingbuloq (13,7 %), Yangiqo'rg'on (12,8 %) va Chortoq tumanlariga (11,6) to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentyabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq (48,4%), Namangan (19,8%) va Yangiqo'rg'on (17,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentyabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,0 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,3 ming kishi bo'lgan.


Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	3,6	3,7
Ko'chib ketganlar	4,2	4,7
Migratsiya saldosi	-0,6	-1,0



Namangan shahridagi demografik holat. Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktyabr holatiga 622,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 13,9 ming kishiga yoki 2,3 %ga o'sgan.

Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 13,1 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 28,5 promilleni tashkil etdi va 2018 yilga nisbatan 2,6 ga (2018 yilning mos davrida 25,9 promille bo'lgan) o'sdi.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 2267 ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 ga ko'paydi (2018 yilning mos davrida 4,8 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4025 ta nikoh va 378 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,7 promilleni tashkil qilib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 ga ko'paydi (2018 yilning mos davrida 8,5 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 0,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,0 promillega (2018 yilning mos davrida 0,8 promille bo'lgan) o'sgan.